

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 086,9 mln.AQSH dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130,8 foizni, shu jumladan, eksport 311,3 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 134,8 foizni, import 775,6 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 129,2 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosini minus 464,3 mln. AQSH dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus 351,4 mln.AQSH dollari va boshqa davlatlar bilan minus 112,9 mln. AQSH dollari tashkil etdi.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		2020yil yanvar-dekabr nisbatan, foizda
	2020 yil	2021 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	831 212,2	1 086 850,6	130,8
MDH mamlakatlari	449 371,0	531 955,8	118,4
boshqa xorij mamlakatlari	381 841,2	554 894,8	145,3
Eksport	231 067,6	311 285,0	137,7
MDH mamlakatlari	87 136,9	90 318,6	103,7
boshqa xorij mamlakatlari	143 930,7	220 966,4	153,6
Import	600 144,6	775 565,6	129,2
MDH mamlakatlari	362 234,0	441 637,2	121,9
boshqa xorij mamlakatlari	237 910,6	333 928,4	140,4
Saldo	-369 077,0	-464 280,6	x
MDH mamlakatlari	-275 097,1	-351 318,6	x
boshqa xorij mamlakatlari	-93 979,9	-112 962,0	x

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (64,8 foiz), Yevropa (34,6 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,4 foizni tashkil etmoqda.

Buxoro viloyatining 2021 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 48,9 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 51,1 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2020 yilda mos ravishda 54,1 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 45,9 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2021 yil yanvar-dekabr oylariga 532,0 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,4 foiz ko‘payish kuzatilgan. Shundan eksport 3,6 foizga va import 21,9 foizga ko‘paygan.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Eron, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Afg'oniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 77,7 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Germaniya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 79,4 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Ukraina davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 96,0 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Italiya, Afg'oniston, Koreya Respublikasi, davlatlarining ulushi 87,1 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar

(2021 yil yanvar–dekabr)

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Rossiya	56,9	181,0	21,9
Turkmaniston	6,4	202,9	19,3
Eron Islom Respublikasi	102,9	30,2	12,2
Turkiya	32,2	91,0	11,3
Xitoy Xalq Respublikasi	35,5	86,8	11,3
Germaniya	1,6	53,9	5,1
Qozog'iston	7,4	33,9	3,8
Italiya	1,6	18,4	1,8
Afg'oniston	14,6	0,6	1,4
Koreya Respublikasi	0,5	14,0	1,3
Tojikiston	8,3	5,2	1,2
Ispaniya	-	9,4	0,9
Ukraina	2,4	6,3	0,8

Viloyatning 2021 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (21,9 foiz), Turkmaniston (19,3 foiz), Eron (12,2 foiz), Turkiya (11,3 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (64,7 foiz)ni tashkil qiladi.

MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-dekabr</i>		<i>yanvar-dekabr</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
Jami	87 136,6	90 318,6	600 144,6	441 637,2

shu jumladan:

Rossiya	35 755,7	56 870,7	176 598,1	180 973,7
Turkmaniston	5 836,4	6 361,2	122 954,8	202 895,7
Qozog‘iston	11926,4	7432,1	51004,6	33884,0
Tojikiston	6 227,7	8 280,5	490,6	5 163,4
Ukraina	2 504,8	2 426,3	3 854,2	6 308,4
Qirg‘iziston	23 430,8	7 002,7	449,2	1 126,0
Ozarbayjon	868,5	1 030,8	1 872,7	5 735,0
Belarus	527,6	542,2	4 640,3	5 405,8
Armaniston	0,2	314,0	-	-
Moldova	58,8	58,1	369,5	145,2

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlar bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,6 foizga oshgan va sanoat tovarlari 48,4 foizga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 56,5 foizni asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat va 77,0 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida eksport-import tarkibi


	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o'zgarish, foizda</i>
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil yanvar-dekabrda nisbatan, foizda</i>
Eksport tarkibi	100,0	100,0	134,7
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,2	9,2	110,7
Ichimliklar va tamaki	0,7	0,6	115,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	34,0	40,8	161,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,0	7,2	139,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,6	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,3	0,7	71,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	31,1	34,3	148,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,5	0,1	11,5
Turli xil tayyor buyumlar	7,0	1,0	19,1
Xizmatlar	4,6	6,1	179,2
Import tarkibi	100,0	100,0	129,2
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,7	4,1	141,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	3,8 m.

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o'zgarish, foizda</i>
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil yanvar- dekabrga nisbatan, foizda</i>
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	2,8	100,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	46,0	43,7	122,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,2	2,7 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,6	8,0	119,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	7,3	8,9	156,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	20,8	28,5	177,0
Turli xil tayyor buyumlar	9,5	3,7	50,4
Xizmatlar	0,4	-	-

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,9 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118,4 foizni tashkil etdi.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021yil yanvar- dekabr oylarida 51,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 45,9 foizga etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 foizga ko'paydi.

Tovar va xizmatlar eksportining o‘tgan yilga nisbatan dinamikasi (2021 yil; o‘tgan yilga nisbatan, foiz)



2021 yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar qayd etildi.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 19,1 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 6,1 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,5 foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2021 yil yanvar-dekabr oylarida jami 28,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 16,1 mln.AQSH dollariga eksport qilindi (8,4 foiz) kamaygan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2021 yil yanvar-dekabr oylarida 21,1 ming tonna sabzavotlar 11,3 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 7,0 ming tonna meva va rezavorlar 4,8 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 16,1 mln.AQSH dollariga yetdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 foizga kamaygan).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi yanvar-dekabr oylari (ming t.)



Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2020 yil yanvar-dekabr			2021 yil yanvar-dekabr		
	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz
Qozog‘iston	18,1	7,8	44,3	15,5	6,2	38,5
Xitoy	7,9	5,3	30,1	5,5	5,0	31,1
Rossiya	3,2	1,7	9,7	5,7	3,6	22,4
Afg‘oniston	4,4	1,2	6,8	1,2	1,1	6,8
Boshqa davlatlar	2,0	1,6	9,1	0,2	0,2	1,2


2021 yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi 775,6 mln.AQSH dollariga (o'sish sur'ati 29,2 foiz) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (28,5 foiz), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (43,7 foiz) va sanoat tovarlari (8,9 foiz) guruhlari hisobiga to'g'ri keladi.

Import tarkibi
(2021 yil yanvar-dekabr)


	<i>Mln.AQSH doll.</i>	<i>2020 yil yanvar– dekabrga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	775,6	129,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31,7	141,7	4,1
Ichimliklar va tamaki	0,6	3,8 m.	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,9	100,5	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	338,9	122,8	43,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	2,7 m.	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	62,0	119,5	8,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	68,9	156,5	8,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	221,4	177,0	28,5
Turli xil tayyor buyumlar	28,8	50,4	3,7

2021 yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)

MDH davlatlari



Boshqa xorij davlatlari



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar


**MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi
(2021 yil yanvar-dekabr)**

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	441,6	100,0	333,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22,9	5,2	8,7	2,6
Ichimliklar va tamaki	0,5	0,1	-	-

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,5	4,2	3,4	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	338,3	76,5	0,6	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	0,3	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	17,9	4,1	44,1	13,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	32,6	7,4	36,3	10,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	7,7	1,8	213,7	64,0
Turli xil tayyor buyumlar	1,8	0,4	27,1	8,1

2021 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizga 60 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog'iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 679,7 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,6 foizni tashkil qiladi.

Mashina va uskunalar importi dinamikasi
(yanvar-dekabr oylari; mln.AQSH dollari)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o'z aksini topadi.

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)

